

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**“QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI” MUZEYI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH  
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida” 2001-yil 1 maydagi PF-2837-son **Farmoniga** muvofiq, mustabid tuzum yillarida qatag‘on etilgan fidoiy vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi faoliyatini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” Kengashi, “Shaxidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasining Fanlar akademiyasi tarkibida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining asosiy vazifalari etib belgilansin:

qatag‘onchilik siyosatining paydo bo‘lishi sabablari va oqibatlarini tadqiq etish va uni mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi sifatida aks ettirish;

mamlakatimiz fuqarolarini va ayniqsa yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoiy ota-bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash;

qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish va targ‘ib etish;

qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatini o‘rganish, ilmiy-ijodiy merosini to‘plash, nashrga tayyorlash va chop etish;

muzey fondlari va ekspozitsiyalarini mamlakatimiz hamda xorijdagi turli hujjatlar va boshqa eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borish.

3. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi xodimlarining cheklangan soni (xizmat ko‘rsatuvchi xodimlardan tashqari) 12 nafar etib belgilansin. Tuzilma va shtatlar ro‘yxatini muzey direktori Fanlar akademiyasi Prezidenti bilan kelishgan holda tasdiqlashi belgilab qo‘yilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ikki hafta muddatda “Qatag‘on qurbonlari muzeyi” to‘g‘risidagi Nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. Toshkent shahar hokimligi muzey binosini mol-mulki va moddiy boyliklari bilan birga belgilangan tartibda “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi balansiga o‘tkazsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi joriy yilda muzeyni saqlash va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar uchun zarur mablag‘lar ajratsin va 2003-yildan boshlab belgilangan tartibda muzeyni saqlash xarajatlari hamda bitta yengil avtotransport sotib olish uchun tegishli mablag‘lar ajratishni nazarda tutsin.

7. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi belgilangan tartibda “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyida bitta hukumat telefoni o‘rnatilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qarorning, bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari H.S. Karomatov zimmasiga yuklansin

**Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2002-yil 8-noyabr,  
387-son